

QURILISH SOHASIDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH MASALALARI

Davletov Islambek Xalikovich - Toshkent arxitektura-qurilish universiteti "Menejment" kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori(DSc)

Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li - Toshkent arxitektura-qurilish universiteti "Menejment" kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayonlari doirasida qurilish sohasidagi institutsional o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek institutsional takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, hududlar infratuzilmasini rivojlantirish hamda qurilish sifatini oshirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan. Shu bilan birga, qurilish ishlari hajmining 2020-2025 yillardagi o'sish sur'atlari, qurilish sohasining institutsional rivojlanish davrlari va har bir davrning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan hamda institutsional islohotlar davrida qurilish sohasining barqaror rivojlanishi yuzasidan tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyotni liberallashtirish, qurilish sektori, uy-joy bozori, institutsional islohotlar, samaradorlik, raqamlashtirish, eskrou tizimi, ipoteka mexanizmlari, barqaror rivojlanish, davlat-xususiy sheriklik.

COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF THE IMPACT OF INSTITUTIONAL REFORMS ON EFFICIENCY IN THE CONSTRUCTION SECTOR

Islambek Khalikovich Davletov – Professor of the Department of Management, Tashkent University of Architecture and Construction, Doctor of Economic Sciences (DSc)

Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li Normirzayev – Assistant of the Department of Management, Tashkent University of Architecture and Construction

Abstract. This article examines the priority directions of institutional transformations in Uzbekistan's construction sector within the framework of recent economic liberalization and public administration modernization processes. It also proposes measures aimed at institutional improvement, the introduction of modern management mechanisms, the development of regional infrastructure, and the enhancement of construction quality. Furthermore, the study analyzes the growth

rates of construction work volumes during 2020–2025, the stages of institutional development of the construction sector, and the specific characteristics of each stage. Recommendations are provided to ensure the sustainable development of the construction industry during the period of institutional reforms.

Keywords: economic liberalization, construction sector, housing market, institutional reforms, efficiency, digitalization, escrow system, mortgage mechanisms, sustainable development, public-private partnership.

КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ РЕФОРМ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Давлетов Исламбек Халикович – профессор кафедры «Менеджмент» Ташкентского архитектурно-строительного университета, доктор экономических наук (DSc)

Нормирзаев Улмасжон Музаффаржон угли – ассистент кафедры «Менеджмент» Ташкентского архитектурно-строительного университета

Аннотация. В статье рассмотрены приоритетные направления институциональных преобразований в строительной отрасли Узбекистана в рамках процессов либерализации экономики и модернизации государственного управления, осуществляемых в последние годы. Также представлены предложения, направленные на институциональное совершенствование отрасли, внедрение современных механизмов управления, развитие региональной инфраструктуры и повышение качества строительства. Наряду с этим проанализированы темпы роста объемов строительных работ в 2020–2025 годах, этапы институционального развития строительной отрасли и особенности каждого этапа. Разработаны рекомендации по обеспечению устойчивого развития строительной отрасли в условиях институциональных реформ.

Ключевые слова: либерализация экономики, строительный сектор, рынок жилья, институциональные реформы, эффективность, цифровизация,

система эскроу, ипотечные механизмы, устойчивое развитие, государственно-частное партнерство.

KIRISH

Qurilish sohasi har qanday milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat infratuzilma va uy-joy fondini yaratadi, balki investitsion jarayonlar, bandlik va sanoat rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayonlari doirasida qurilish sohasida ham keng ko'lamli institutsional islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, qurilish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza takomillashtirilib, "**O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi**" [1] yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur kodeks shaharsozlik faoliyatini tartibga solish, ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish hamda davlat nazoratini optimallashtirishga xizmat qildi.

O'zbekistonda qurilish sohasidagi institutsional o'zgarishlarni quyidagi asosiy yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

1. *Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.* Qurilish jarayonlarining shaffofligi va qonuniyligini ta'minlash maqsadida litsenziyalash, ekspertiza va ruxsat berish tartiblari qayta ko'rib chiqildi. qurilish obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish va foydalanishga topshirish mexanizmlari soddalashtirildi.

2. *Davlat boshqaruvi tizimini optimallashtirish.* Qurilish sohasida vakolatli organlar faoliyati qayta tashkil etildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-apreldagi "**Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat nazoratini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida**" gi PF-66-son farmoni[2] asosida qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat nazorati mexanizmlari qayta ko'rib chiqildi hamda raqamli monitoring tizimlari joriy etildi.

3. *Raqamlashtirish jarayonlari.* Elektron ruxsatnomalar, onlayn ekspertiza va kadastr tizimlari bosqichma-bosqich joriy qilindi. Bu omil inson omilini qisqartirish orqali korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

4. *Bozor mexanizmlarini rivojlantirish.* Uy-joy bozorini rivojlantirish, ipoteka mexanizmlarini takomillashtirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish» yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga

oshirish bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida" gi PF-22-son farmoni [3] ijrosi qurilish sohasi rivojlanishiga ham bevosita va sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur jarayonlar natijasida sohada institutsional takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, hududlar infratuzilmasini rivojlantirish hamda qurilish sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida uy-joy va ipoteka bozorini barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-219-son farmoni [4]. Ushbu farmonning asosiy maqsadi uy-joy sohasini barqaror va muvozanatli rivojlantirishni ta'minlash, 2040-yilga qadar har yili qurilayotgan uy-joylar sonini ikki baravarga oshirib, 421 mingtaga olib chiqish, ipoteka krediti portfelini 10 baravardan ortiq ko'paytirgan holda 56,7 mlrd AQSH dollariga yetkazish. Farmonning asosiy yo'nalishlari qurilish sohasining struktura va moliyaviy tizimini barqarorlashtirishga yo'naltirilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston qurilish sohasida innovatsion menejment hali boshlang'ich bosqichda bo'lib, asosan yirik korxonalar va davlat tomonidan boshqariladigan loyihalar bilan chegaralangan. "Shaffof qurilish" tizimi kabi raqamli platformalar institutsional yordam ko'rsatsa-da, BIM va "Raqamli egizak" kabi ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi barqaror emas. Ushbu notekis o'zlashtirish texnologik va tashkiliy salohiyatni oshirish bo'yicha strategik choralar ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Inson kapitalidagi cheklovlar muhim to'siq bo'lib qolmoqda. Boshqaruv vakolatlarining cheklanganligi va yetarli darajada o'qitish imkoniyatlarining yo'qligi innovatsion boshqaruv amaliyotlarining samarali joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Ishchi kuchi bilan bog'liq ushbu muammolarni hal qilish korxonalarining texnologik vositalardan to'liq foydalanishi va loyiha natijalarini optimallashtirishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy va texnologik cheklovlar innovatsiyalarning sekin o'zlashtirilishini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar raqamli tizimlar va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish uchun zarur resurslarni ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu tarkibiy

cheklovlar innovatsiyalarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli investitsiyalar va rag'batlantirish mexanizmlari muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda barqaror va innovatsiyalarga asoslangan qurilish sohasiga erishish texnologik, insoniy, moliyaviy va institutsional jihatlarni bir vaqtning o'zida qamrab oluvchi integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Strategik investitsiyalar, boshqaruv vakolatlarini shakllantirish va qulay tartibga solish muhitini yaratish orqali qurilish sanoati o'zining operatsion samaradorligini oshirishi, loyiha natijalarini yaxshilashi hamda ichki va global bozorlarda uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashi mumkin [5].

Zamonaviy muammolar bugungi kunda institutsional islohotlarning samarali amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda jiddiy siyosiy va iqtisodiy-institutsional islohotlar siyosiy qarash va yo'nalishlardan qat'i nazar, hamma uchun foydali ekanligi aniq. Tashqi va ichki bosimlar, rivojlanish hamkorlarining talablari, global savdo sharoitlaridagi o'zgarishlar institutsional va siyosiy islohotlarni rag'batlantirmoqda. Bu islohotlar kamroq xavfli va adolatli foyda olish muhitini yaratadi, bu esa investorlarni jalb qilish va ushbu iqtisodiyotlarning iqtisodiy o'sishini kuchaytirishga xizmat qiladi [6].

Jahon amaliyotida qurilish sanoatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar quyidagi ustuvor yo'nalishlarda rivojlanmoqda:

- qurilish jarayonlarini tashkil etishda tizimli yondashuvlarni qo'llash;
- innovatsion biznes modellari orqali loyihalash, qurilish-montaj ishlari va ta'minot zanjirini optimallashtirish;
- qurilish sanoati infratuzilmasini samarali tashkil etish (moliyalashtirish, kafolatlash, sug'urta, konsalting, texnik ekspertiza);
- davlat-xususiy sheriklik (DXSh/PPP) mexanizmlari doirasida loyiha boshqaruvi va risklarni taqsimlash usullarini takomillashtirish.

Ushbu tendensiyalar shuni yaqqol ko'rsatadiki, qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyati nafaqat bozor omillari, balki davlatning institutsional tartibga solish sifatini belgilovchi huquqiy, tashkiliy va raqamli mexanizmlar bilan ham shakllanadi [7].

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar sharoitida moslashuvchanlik, raqamli transformatsiya va resurslarni samarali boshqarish omon qolish va o'sish uchun hal qiluvchi omillarga aylanmoqda.

Davlatning qo'llab-quvvatlashi, investitsion faollik, milliy dasturlarda ishtirok etish va zamonaviy boshqaruv vositalariga (masalan, BIM, KPI va moliyaviy rejalashtirish) o'tish birgalikda qurilish tashkilotlariga o'z operatsion

samaradorligi va bozor o'rnini sezilarli darajada oshirish imkonini beradigan keng qamrovli strategiyani shakllantiradi. Davlat yordami ko'pincha muhim moliyaviy resurslar, tartibga solish sohasidagi qulayliklar va biznes o'sishi uchun barqaror va qulay muhit yaratadigan siyosat asoslarini taqdim etadi. Faol investitsiyalar innovatsiyalarni, infratuzilma rivojlanishini va ilg'or texnologiyalarni qabul qilishni rag'batlantiradi, bu esa kompaniyalarning sanoat tendensiyalarining eng oldingi safida qolishini ta'minlaydi [8].

Shuningdek, qurilish sohasining o'ziga xosligi – u ishlab chiqaradigan tovarlar, iqtisodiyot uchun asosiy tuzilmalarni ta'minlash va ko'plab ish o'rinlarini yaratish jihatidan alohida ekanligi qayd etiladi. Resurslarga boy mamlakatlarda qurilish sektoriga bo'lgan talab ortib borayotgani, mahalliy firmalarning ishtiroki esa mahalliy sektor salohiyatiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Xarid qilish, moliyalashtirish va korrupsiya sohasidagi to'siqlar asosiy muammolar sifatida ko'rsatilgan. Donorlarning shartnomalar tafsilotlarini ochiqlashi, axborot boshqaruvi tizimlarini rivojlantirishda yordam berishi va bog'langan yordamni bekor qilishi mahalliy salohiyatni oshirishning muhim yo'nalishlari sifatida tavsiya etiladi. Tabiiy resurslarga boy mamlakatlarning mahalliy kontent siyosatidagi tajribasidan foydalanish va sektorning iqtisodiyot bilan bog'liqliklarini chuqurroq o'rganish siyosat muhitini yaxshilashga xizmat qiladi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini qurilish sohasida amalga oshirilgan institutsional islohotlarning samaradorlikka ta'sirini kompleks baholashga qaratilgan zamonaviy ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda tizimli, institutsional, iqtisodiy-statistik va komparativ tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot ikkilamchi ma'lumotlar manbalarining tahliliga asoslangan bo'lib, bularga rasmiy statistik hisobotlar, davlat siyosat hujjatlari, tarmoqni rivojlantirish dasturlari va ilmiy nashrlar kiradi. Ushbu manbalar qurilish sektorining hozirgi holati, innovatsiyalar bilan bog'liq islohotlar va boshqaruv amaliyotlari haqida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi. Ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanish qurilish korxonalarida innovatsion menejmentga ta'sir qiluvchi asosiy tendensiyalar va tarkibiy modellarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot shuningdek, qurilish korxonalarida duch keladigan asosiy muammolarni aniqlash uchun muammoga yo'naltirilgan analitik asosdan

foydalanadi. Ushbu muammolar institutsional, texnologik, moliyaviy va inson resurslari bilan bog'liq omillarga toifalarga ajratiladi. Bunday tasniflash innovatsiyalar oldidagi to'siqlarni tizimli baholashni osonlashtiradi va ularning nisbiy ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

Analitik qat'iylikni oshirish uchun tadqiqot tizimli tahlil elementlarini birlashtiradi hamda qurilish korxonalariga tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatadigan murakkab tashkiliy tizimlar sifatida qaraydi. Ushbu nuqtai nazar siyosat islohotlari, bozor sharoitlari va tashkiliy imkoniyatlar innovatsion natijalarni shakllantirish uchun o'zaro qanday ta'sir qilishini o'rganish imkonini beradi.

USLUBIYOT VA TAHLILLAR

Qurilish ishlari hajmining 2020-2025 yillarda o'sish sur'atlari mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, investitsion faollikning oshishi hamda boshqaruv tizimining modernizatsiyalashuvi bilan izohlanadi. Ayniqsa, 2023 yildan boshlab qurilish sohasi rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich boshlanib, qurilish hajmi keskin oshgan. Bu esa qurilish tarmog'ining milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4464-son qarori bilan 2020-yil 8-fevralda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzurida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Respublika markazi (Shaffof qurilish) tashkil etilgan [10]. Unga ko'ra, 2025-yil 1-iyuldan boshlab, quruvchilar va mijozlar o'rtasida tuziladigan ulush kiritish shartnomalari majburiy tartibda notariusda tasdiqlanishi va kadastr ro'yxatidan o'tkazilishi kerak bo'ladi.

1-jadval

O'zbekistonda 2020-2025 yillarda qurilish ishlari hajmining o'sish dinamikasi ¹

Yillar	Qurilish ishlari hajmi (trln so'm)	O'sish sur'ati (%)
2020	88.1	32
2021	107.5	22
2022	130.8	21.6
2023	202.8	55
2024	233.8	15.2

¹ Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida mualliflar ishlanmasi.

2025	313.9	34.3
------	-------	------

Shu sanadan e'tiboran eskrou tizimini ham joriy etish boshlanadi. Bunda, hali bitmagan uydan kvartira sotib olmoqchi bo'lganlar quruvchining o'ziga emas, bankka to'lov qiladi. Quruvchilar va banklar o'zaro kelishuv asosida bankda eskrou hisobvarag'ini ochadi, ulushdorlar to'lagan pullar shu hisobvaraqa yig'iladi. Uy bitmaguncha quruvchi kompaniyalar bu pullardan foydalanolmaydi. Bu tartib 1- iyuldan 31-dekabrgacha ixtiyoriy bo'ladi va agar kerakli qonunlar vaqtida qabul qilinsa, 2025-yil 1-yanvardan majburiy kuchga ega bo'ladi [11].

Quyida keltirilgan jadvalda shuni ko'rishimiz mumkinki, mamlakatda olib borilayotgan normativ-huquqiy institutsional islohatlarning sektorlarning rivojlanishiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

Joriy yilning 6-may kuni Prezident Sh. Mirziyoyev qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida byurokratiyani qisqartirish va nazorat ishlari natijadorligini oshirish mavzusida selektorlarida, sohada davlat xizmatlarini soddalashtirish, ruxsat berish jarayonlarida byurokratiyani kamaytirish, qurilish ob'ektlari ustidan nazoratni raqamlashtirish va inson omilini qisqartirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, hozirda qurilishni boshlash uchun ruxsat olishda jami 8 ta hujjat talab etiladi. Bu jarayon ayrim hollarda 3 oydan 12 oygacha cho'zilmogda. Shu bois 2 ta hujjatni talab qilishni bekor qilish, yana 2 ta hujjatni esa raqamli integratsiya hisobiga shakllantirish taklif etildi. Natijada ariza berish va ko'rib chiqish uchun ketadigan vaqt 7 barobar qisqaradi, buyurtmachilarning ortiqcha ovoragarchiligi kamayadi. Yangi tartibga ko'ra, loyihalashga ruxsatnoma va arxitektura-rejalashtirish topshirig'i berish jarayonlari yagona hujjatga birlashtiriladi. "ShaffofAI" tizimi orqali ushbu jarayon inson omilisiz, avtomatik tarzda amalga oshirilishi ko'zda tutilmogda. Buning natijasida 30 ish kunigacha davom etadigan jarayon to'liq avtomatlashtiriladi.

2-jadval

Qurilish sohasining institutsional rivojlanish davrlari²

Yillar	Normativ-huquqiy hujjatlar	Raqamlashtirish va boshqaruv	Soha rivojlanishi
2020	Qurilish sohasini modernizatsiyalash strategiyasi loyihasi e'lon qilindi.	"Shaffof qurilish" tizimi asoslari yaratila boshlandi.	Strategiyada 2025-yilgacha 15 ta zamonaviy loyiha institutlari tashkil etish rejalashtirilgan.

² Tadqiqotlar asosida mualliflar ishlanmasi.

2021	2021-2025 yillarga mo'ljallangan Strategiya rasman tasdiqlandi (PF-6119-son).	“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi ishga tushirildi; “Ogoh fuqaro” elektron tizimi yaratildi.	2 qavatdan yuqori binolar uchun loyiha hujjatlari majburiy ekspertizasi joriy etildi.
2022	Shaharsozlik normalari optimallashtirila boshlandi.	Raqamli hujjat aylanishi tizimi kengaytirildi.	Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar reestri shakllantirila boshlandi.
2023	420 ta shaharsozlik normasi optimallashtirilib, 140 ta yangi standart joriy etildi.	Ruxsat berish muddatlari 4 baravarga qisqartirildi.	Qurilish korxonalar soni 10 mingga yetdi.
2024	Nazorat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish jarayoni kuchaytirildi.	Raqamlashtirish hisobidan 3,6 trln so'm iqtisod qilindi	Eskrow hisobvaraqa tizimi joriy etila boshlandi.
2025	Davlat nazorati funksiyalari litsenziyalangan xususiy tashkilotlarga o'tkazildi.	QR kodli pasport tizimi joriy etildi; “Shaffof qurilish” qamrovi 100% ga yetkazildi.	Qurilishga yondosh sohalarda 3,5 million kishi band qilindi.

Loyiha-qidiruv, qurilish-pudrat va ekspertiza tashkilotlarini litsenziyalashda ham yangi tartib joriy etiladi. Bugungi kunda ariza berishda 3 tadan 30 tagacha hujjatni ilova qilish talab etilib, qaror qabul qilish 14 ish kunigacha cho'zilmoqda. Taklif etilayotgan tizimda ma'lumotlar elektron bazalar orqali avtomatik tekshiriladi, hujjat ilova qilish talabi bekor qilinadi. Litsenziyani rasmiylashtirish muddati 14 ish kundan 5 daqiqagacha qisqaradi, qaror qabul qilish jarayoni 97 foizga tezlashadi.

Qurilish obyektlarini foydalanishga qabul qilish jarayoni ham soddalashtiriladi. O'tgan yili bu borada berilgan 20 mingdan ortiq arizalar turli sabablar bilan rad etilgan. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun buyurtmachilar 1 oydan 3 oygacha vaqt sarflamoqda. Endi davlat ob'ektlarini foydalanishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlar soni 3 tadan 1 taga qisqartiriladi. Texnik va mualliflik nazoratchilari xulosalari, muvofiqlik deklaratsiyasi va boshqa ma'lumotlar raqamli tizimlar orqali shakllantiriladi. Bu orqali ob'ektni qabul qilish

muddati 2 oydan 15 kungacha qisqaradi. Shu bilan birga, binoning mustahkamligi va yong'in xavfsizligiga ta'sir qilmaydigan arxitekturaviy yoki rejaviy o'zgarishlar sabab ob'ektni foydalanishga qabul qilishni rad etish amaliyoti qayta ko'rib chiqiladi. Bunday holatlarda zarur korrekturalar kiritilib, ob'ektni qabul qilish imkoniyati yaratiladi [12].

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu tadqiqotda institutsional islohotlarning qurilish sohasi korxonalari samaradorligiga ta'siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, institutsional islohotlar va qurilish korxonalari samaradorligi o'rtasida o'zaro mustahkam bog'liqlik mavjud. Xususan, mulk huquqlarining himoyasi, qonun ustuvorligi, byudjet balansi va ish haqi o'zgarishlarini tartibga soluvchi institutsional mexanizmlar qurilish firmalarining umumiy omil unumdorligiga (TFP) ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir, asosan, korxonalarining texnik samaradorligini oshirish orqali amalga oshadi.

Qurilish sohasi rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ko'pincha texnik muammolar bilan bir qatorda institutsional va siyosiy kamchiliklarga duch keladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy-institutsional islohotlar (masalan, liberallashtiruv, mulk huquqlarini himoya qilish) birinchi navbatda amalga oshirilganda, qurilish korxonalarining investitsiyalarni jalb qilish va o'sish sur'atlari sezilarli darajada oshadi. Aksincha, faqat siyosiy islohotlarga e'tibor qaratish yoki islohotlar ketma-ketligining buzilishi qurilish sohasida uzoq muddatli samaradorlikka erishishni qiyinlashtiradi.

Shuningdek, tadqiqotlar institutsional islohotlarning qurilish sohasi korxonalari samaradorligiga ta'sirini darhol emas, balki uzoq muddatli davrda namoyon bo'lishini ko'rsatmoqda. Shu boisdan, institutsional islohotlar tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Xulosa qilib aytganda, institutsional islohotlar va qurilish korxonalari samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi – bu bog'liqlik qurilish sohasining uzoq muddat barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi.

Yuqoridagi xulosalarga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

qurilish korxonalari samaradorligini oshirish uchun avvalo mulk huquqlarini himoya qilish, shartnoma intizomini kuchaytirish va soliq muhitini barqarorlashtirish kabi iqtisodiy islohotlardan boshlash maqsadga muvofiq. Siyosiy islohotlar keyingi bosqichda amalga oshirilishi kerak;

islohotlarni bosqichma-bosqich va tizimli tarzda joriy etish, ularning samaradorligini muntazam monitoring qilish zarur.

“Shaffof qurilish” tizimlari, raqamli nazorat va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish institutsional muhitni yaxshilaydi va korxonalarining vaqt va resurs samaradorligini oshiradi;

korxonalar institutsional islohotlarni kuzatib borishi va ularga tez moslashish mexanizmlarini (masalan, ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, xodimlarning malakasini oshirish) joriy etishi lozim;

kuchli institutsional muhitda faoliyat yuritayotgan korxonalar uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega. Shu sababli, korxonalar o‘zlarining moliyaviy shaffofligi va korporativ boshqaruv standartlarini xalqaro talablarga moslashtirishi tavsiya etiladi;

tadqiqotlar institutsional islohotlarning ta’siri asosan texnik samaradorlik orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Shu bois, qurilish korxonalarida texnologik yangilanishlar va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga alohida e’tibor qaratish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi. <https://lex.uz/docs/-5307951>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-apreldagi “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida davlat nazoratini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-66-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7478539>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish» yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-22-son farmoni. <https://lex.uz/docs/8050787>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy va ipoteka bozorini barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-219-son farmoni. <https://www.lex.uz/uz/pdfs/-7851209>
5. Toqsonov Kh.E. Innovative Management Practices And Challenges In Construction Enterprises Of Uzbekistan // International Journal Of Political Sciences And Economics, Volume 5, Issue 01, 2026, pp. 10-20 <https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/10232/10141>
6. Discover Scientific Knowledge And Stay Connected To The World Of Science. www.researchgate.net

7. Amonov M.O. Mechanisms of state regulation of entrepreneurial activities in the construction sector: institutional-legal and digital approaches (on the example of Uzbekistan) // International Journal Of Artificial Intelligence, ISSN:2692-515-x, Volume 6, Issue 02, 2026, pp. 1070-1077.

<https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/10961/11495>

8. Djabriev A.N., Tashmuhamedova F.A. Mechanisms For Improving The Profitability Of Construction Organizations In The Context Of Economic Reforms // Innovative Technologica: Methodical Research Journal, Volume 6, Issue 6, june-2025, pp. 16-22.

<https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/703>

9. Martina Kirchberger, Wider Working Paper 2018/146 The Role Of The Construction Sector, November, 2018.

<https://www.wider.unu.edu/sites/default/files/Publications/Working-paper/PDF/wp2018-146.pdf>

10. Shaffof qurilish. https://gov.uz/oz/mc/activity_page/shaffof-qurilish-milliy-axborot-tizimi